

**BOJXONA TO‘LOVLARINI DAVLAT BYUDJETIGA AVTOMATIK
O‘TKAZISH MEKANIZMINI JORIY ETISHNING ZARURATI, HUQUQIY
YECHIMI VA MOLİYAVIY-IQTISODIY AHAMIYATI**

To‘xtamurodov Bobur Baxtiyor o‘g‘li

Bojxona qo‘mitasi katta inspektori,

e-mail: btb030398@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bojxona to‘lovlari bo‘yicha tushumlarni Davlat byudjetiga avtomatik o‘tkazish mexanizmini joriy etishga umumiy yondashuv yoritiladi. Ushbu mexanizm byudjet daromadlarining o‘z vaqtida shakllanishini ta‘minlash, ish kunlarini aniq hisobga olish asosida tushumlarni belgilangan muddatlarda o‘tkazish hamda inson omili ta‘sirini keskin kamaytirishga qaratilgan. Yondashuv doirasida bojxona to‘lovlari bo‘yicha hisoblangan mablag‘larni uch ish kuni ichida Davlat byudjeti hisobiga avtomatik o‘tkazish, shuningdek bu jarayonni raqamli axborot tizimlari orqali avtomatik memorial orderlar shakllantirish asosida rasmiylashtirish masalalari tahlil qilinadi. Natijada fiskal intizom, shaffoflik va moliyaviy nazoratning institutsional darajada kuchayishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: bojxona to‘lovlari; Davlat byudjeti; ish kunlari hisobi; avtomatik o‘tkazish; inson omili; memorial order; fiskal intizom.

**ВНЕДРЕНИЕ МЕХАНИЗМА АВТОМАТИЧЕСКОГО ПЕРЕЧИСЛЕНИЯ
ТАМОЖЕННЫХ ПЛАТЕЖЕЙ В ГОСУДАРСТВЕННЫЙ БЮДЖЕТ:
НЕОБХОДИМОСТЬ, ПРАВОВОЕ РЕШЕНИЕ И ФИНАНСОВО-
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ**

Тухтамуродов Бобур Бахтиёрович,

Старший инспектор Таможенного комитета

e-mail: btb030398@gmail.com

Аннотация. В статье в обобщённом виде рассматривается подход к внедрению механизма автоматического перечисления поступлений от таможенных платежей в Государственный бюджет. Данный механизм направлен на обеспечение своевременного формирования доходов бюджета, точный учёт рабочих дней при перечислении средств, а также на резкое снижение влияния человеческого фактора. В рамках подхода анализируется правило перечисления начисленных таможенных платежей в течение трёх рабочих дней и оформление данных операций посредством автоматического формирования мемориальных ордеров в информационных системах. Это позволяет повысить уровень фискальной дисциплины, прозрачности и финансового контроля.

Ключевые слова: таможенные платежи; Государственный бюджет; учёт рабочих дней; автоматическое перечисление; человеческий фактор; мемориальный ордер; фискальная дисциплина.

INTRODUCING AN AUTOMATIC TRANSFER MECHANISM FOR CUSTOMS PAYMENTS TO THE STATE BUDGET: RATIONALE, LEGAL FRAMEWORK, AND FINANCIAL-ECONOMIC SIGNIFICANCE

Tukhtamurodov Bobur Bakhtiyorovich
Senior Inspector of the Customs Committee
e-mail: btb030398@gmail.com

Abstract. This article presents a general approach to implementing an automatic mechanism for transferring customs payment revenues to the State Budget. The mechanism aims to ensure timely budget revenue formation, accurate calculation of working days for fund transfers, and a significant reduction of human-factor involvement. The approach emphasizes the rule of transferring assessed customs payments to the State Budget within three working days and formalizing these transactions through the automatic generation of memorial orders in digital information systems. As a result, fiscal discipline, transparency, and institutional financial control are substantially strengthened.

Keywords: customs payments; State Budget; working day calculation; automatic transfer; human factor; memorial order; fiscal discipline.

O‘zbekiston Respublikasida bojxona organlari mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, tashqi savdo faoliyatini tartibga solish hamda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim institutsional rol o‘ynaydi. Shu nuqtayi nazardan, bojxona to‘lovlarini hisoblash, undirish va ularning harakatini nazorat qilish mexanizmlarining shaffof, ishonchli va samarali bo‘lishi davlat moliya siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bojxona to‘lovlari davlat byudjetining barqaror va salmoqli daromad manbalaridan biri bo‘lib, ushbu tushumlarning o‘z vaqtida va to‘liq byudjetga yo‘naltirilishi fiskal barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarni bojxona va moliya boshqaruvi tizimlariga keng joriy etish bojxona to‘lovlari bo‘yicha hisob-kitoblarni avtomatlashtirish, inson omilining ta’sirini kamaytirish hamda korrupsiyaviy xavflarni minimallashtirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, bojxona jarayonlarini raqamlashtirish tashqi savdo ishtirokchilari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib, ma’muriy yuklamani qisqartiradi va operatsion tezkorlikni oshiradi. Mazkur jarayonlar O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkiloti (JST) va boshqa xalqaro iqtisodiy

tuzilmalar bilan integratsiyalashuvi doirasida ham alohida ahamiyat kasb etib, bojxona to'lovlarini hisoblash va undirish tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Davlat moliyasini boshqarishda byudjet daromadlarining o'z vaqtida va to'liq shakllanishi asosiy ustuvor vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Bojxona to'lovlari davlat byudjeti daromadlarining muhim tarkibiy qismi bo'lgani sababli, ushbu tushumlarning hisobga olinishi va byudjetga o'tkazilishi mexanizmi moliyaviy intizom, shaffoflik va hisobdorlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois bojxona to'lovlarini Davlat byudjetiga avtomatik o'tkazish mexanizmini joriy etish zamonaviy fiskal boshqaruvning ajralmas elementi sifatida qoraladi.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 328-moddasi bojxona to'lovlarini to'lash, hisobga olish va ularni Davlat byudjetiga o'tkazish tartibini belgilovchi asosiy normativ-huquqiy mexanizm hisoblanadi. Amaldagi tahrirga muvofiq, bojxona to'lovlari to'lovchilar tomonidan bojxona organlarining shu maqsadlar uchun ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga to'lanadi hamda to'langan va undirilgan bojxona to'lovlarining hisobi bojxona organlarining axborot tizimida yuritiladi. Ushbu tartib bojxona tushumlarini markazlashgan holda hisobga olishni ta'minlasa-da, tushumlarning individual kesimda monitoringi va ularni byudjetga o'tkazish jarayonida inson omilining sezilarli darajada saqlanib qolishi bilan tavsiflanadi.

Amaldagi huquqiy normalarga ko'ra, to'langan bojxona to'lovlaridan olingan mablag'lar tovarlar chiqarib yuborilgan kundan yoki bojxona rasmiylashtiruvi bilan bevosita bog'liq bo'lmagan bojxona to'lovlari bo'yicha tegishli harakatlar yoxud tartib-taomillar bajarilgan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida bojxona organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga o'tkaziladi. Mazkur besh ish kunlik muddat byudjet daromadlarining shakllanishida ma'lum darajada vaqt tafovutini yuzaga keltirishi, shuningdek ish kunlarini hisoblashda amaliy murakkabliklar paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, bojxona to'lovlarini byudjetga o'tkazish jarayonida qo'lda bajariladigan operatsiyalar mavjudligi hisob-kitoblarda xatoliklar va subyektiv aralashuv xavfini istisno etmaydi.

Yangi tahrirda bojxona organlari tomonidan nafaqat bojxona to'lovlari, balki penyalar va jarimalar hisobini ham bojxona organlarining axborot tizimidagi to'lovchining shaxsiy hisobvarag'i orqali yuritish instituti joriy etilmoqda. Ushbu yondashuv bojxona to'lovlari hisobini yanada individuallashtirish, moliyaviy majburiyatlarning harakatini to'liq raqamli shaklda aks ettirish hamda nazorat mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. To'lovchining shaxsiy hisobvarag'ini yuritish tartibining vakolatli organ tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanishi ushbu mexanizmning yagona va standart qo'llanilishini ta'minlashga qaratilgan.

Yangi tahrirning konseptual jihatdan eng muhim yangiligi shundan iboratki, to‘langan bojxona to‘lovlaridan olingan mablag‘lar Davlat byudjetiga uch ish kuni ichida avtomatik ravishda o‘tkazilishi belgilandi. Ushbu norma byudjet daromadlarini shakllantirish muddatini qisqartiradi, ish kunlarini hisoblashni aniq va shaffof qiladi hamda bojxona tushumlarining byudjetga o‘z vaqtida kirib kelishini kafolatlaydi. Eng muhimi, avtomatik o‘tkazish mexanizmi bojxona to‘lovlarini byudjetga yo‘naltirish jarayonida inson omilini keskin kamaytirib, moliyaviy operatsiyalarni algoritmlashtirilgan va raqamlashtirilgan tartibda amalga oshirish imkonini beradi.

Shu tariqa, Bojxona kodeksi 328-moddasining yangi tahriri bojxona va g‘aznachilik tizimlari o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, avtomatik memorial orderlarning shakllanishi uchun huquqiy asos yaratish hamda byudjet ijrosining shaffofligi va barqarorligini oshirishga qaratilgan. Amaldagi besh ish kunlik va qisman qo‘lda boshqariladigan mexanizmdan **uch ish kunlik avtomatlashtirilgan** mexanizmga o‘tilishi davlat moliyaviy boshqaruvida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab beradi hamda fiskal intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv moliyaviy jarayonlarning standartlashuvi, algoritmlashtirilgan boshqaruv va raqamli nazorat tamoyillariga asoslanadi.

Bojxona to‘lovlarini avtomatik o‘tkazish mexanizmining muhim institutsional elementi sifatida avtomatik memorial orderlarning shakllanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Axborot tizimlari orqali:

hisoblangan bojxona to‘lovlari bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari avtomatik tarzda shakllantiriladi;

memorial orderlar inson aralashuvisiz rasmiylashtiriladi;

moliyaviy operatsiyalar bo‘yicha yagona va uzluksiz raqamli iz (audit trail) yaratiladi.

Bu holat moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirish bilan birga, nazorat organlari uchun real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyatini yaratadi hamda byudjet ijrosi ustidan institutsional nazoratni kuchaytiradi.

Bojxona to‘lovlari tushumlarini Davlat byudjetiga avtomatik o‘tkazish mexanizmi amaliyotga joriy etilishi natijasida bir qator ijobiy moliyaviy-iqtisodiy samaralarga erishiladi. Jumladan:

byudjet ijrosining barqarorlashuvi va tushumlarning kechikmasdan byudjetga kirib kelishi;

ish kunlari hisobiga asoslangan pul oqimlari boshqaruvi orqali kassa rejalashtirishning aniqlashuvi;

qo‘lda qayta ishlash va takroriy nazorat amaliyotlarining qisqarishi hisobiga ma‘muriy xarajatlarning kamayishi;

inson omilining minimal darajaga tushirilishi natijasida korrupsiyaviy xavflarning sezilarli pasayishi.

Xulosa qilib aytganda, Bojxona to'lovlari tushumlarini Davlat byudjetiga avtomatik o'tkazish mexanizmini joriy etish O'zbekiston Respublikasida fiskal boshqaruvni modernizatsiya qilish, byudjet daromadlarining o'z vaqtida va shaffof shakllanishini ta'minlash hamda raqamli davlat boshqaruvi tamoyillarini izchil amalga oshirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Bojxona to'lovlari davlat byudjeti daromadlarining barqaror manbalaridan biri sifatida ularni hisobga olish va byudjetga o'tkazish mexanizmining samaradorligi moliyaviy intizom va makroiqtisodiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bojxona kodeksining 328-moddasi amaldagi tahririda bojxona to'lovlari Davlat byudjetiga o'tkazish uchun besh ish kunlik muddat nazarda tutilgan bo'lib, ushbu tartib byudjet tushumlarining shakllanishida vaqt tafovutini yuzaga keltirishi va jarayonda inson omilining saqlanib qolishiga sabab bo'lishi mumkin edi. 2026-yildan kuchga kiradigan yangi tahrirda esa bojxona to'lovlari, shuningdek penyalar va jarimalar hisobi to'lovchining shaxsiy hisobvarag'i orqali yuritilishi hamda hisoblangan mablag'larning uch ish kuni ichida avtomatik ravishda Davlat byudjetiga o'tkazilishi belgilanishi ushbu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan muhim institutsional yangilik sifatida baholanadi.

Yangi mexanizm ish kunlarini aniq hisoblash asosida bojxona tushumlarining byudjetga o'z vaqtida kirib kelishini ta'minlab, moliyaviy operatsiyalarni raqamlashtirilgan va algoritmlashtirilgan tartibda amalga oshirish imkonini beradi. Avtomatik o'tkazish jarayonida avtomatik memorial orderlarning shakllanishi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi, yagona raqamli iz (audit trail)ni yaratadi hamda nazorat organlari uchun real vaqt rejimida monitoring olib borish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, inson omilining keskin kamayishi hisob-kitoblarda xatoliklar va subyektiv aralashuv xavfini minimallashtiradi.

Umuman olganda, Bojxona kodeksi 328-moddasining yangi tahriri bojxona va g'aznachilik tizimlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, byudjet ijrosining barqarorligini oshirish va fiskal shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi. Besh ish kunlik va qisman qo'lda boshqariladigan mexanizmdan uch ish kunlik avtomatlashtirilgan mexanizmga o'tilishi davlat moliyaviy boshqaruvida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berib, O'zbekistonning xalqaro fiskal va bojxona amaliyotlariga uyg'unlashuvi uchun mustahkam huquqiy va institutsional asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. (2016). O'RQ-400-son. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2017). G'aznachilik integrallashtirilgan axborot tizimlarini takomillashtirish bo'yicha ma'lumotnoma (DS/31-01/2-32-12/1100-son).

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi. (2025). Bojxona to‘lovlari va davlat byudjeti tushumlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar. Toshkent.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari to‘plami. (2020–2024). Raqamli iqtisodiyot va fiskal boshqaruvni rivojlantirishga oid hujjatlar. Toshkent.
5. World Customs Organization. (2018). Revised Kyoto Convention: Guidelines on customs procedures. Brussels: WCO.
6. World Trade Organization. (2019). Trade Facilitation Agreement and customs valuation principles. Geneva: WTO.
7. International Monetary Fund. (2021). Revenue administration and digitalization in public finance. Washington, DC: IMF.
8. OECD. (2020). Digital transformation of public finance. Paris: OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264300236-en>
9. IFRS Foundation. (2022). International Financial Reporting Standards (IFRS). London: IFRS Foundation.
10. Musgrave, R. A., & Musgrave, P. B. (1989). Public finance in theory and practice (5th ed.). New York, NY: McGraw-Hill.
11. Tanzi, V. (2013). Tax systems in the digital economy. Oxford: Oxford University Press.